

Yagona QR-kod orqali (ekvayring) xizmat ko'rsatish to'g'risidagi Ommaviy oferta

Toshkent sh.

202_ y «___» _____

Mazkur hujjat "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning (keyingi o'rinlarda — Bank) yuridik shaxs, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs, o'zini o'zi band qilgan shaxs hamda davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari foydasiga to'lovlarni qabul qiluvchilarga (keyingi o'rinlarda — Mijoz) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 370-moddalariga muvofiq yagona QR-kodni generatsiya qilish va unga xizmat ko'rsatish (ekvayring) bo'yicha Ommaviy ofertani (keyingi o'rinlarda — Shartnoma) tuzish haqidagi rasmiy taklifi hisoblanadi. Mazkur Shartnoma "To'lovlarni amalga oshirishda yagona QR-kod orqali to'lov xizmatlarini ko'rsatish" Qoidalariga (ro'yxat raqami 3817, 2026-yil 15-aprel) asosida ishlab chiqilgan.

Shartnoma Mijozning vakolatli shaxsi tomonidan mazkur Shartnoma shartlarini aksept qilish orqali amalga oshiriladi. Aksept qilish Mijozning vakolatli shaxsi tomonidan Shartnomaning 2-sonli ilovasiga muvofiq shaklda rasmiylashtirilgan Arizani to'ldirish va Bankka taqdim etish yo'li bilan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron hujjat aylanishi tizimlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

1. Atamalar

1.1. Ushbu Shartnomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Bank - ekvaer to'lovni qabul qiluvchini yagona QR-kod tizimida ro'yxatdan o'tkazish, QR-kodni generatsiya qilish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va hisobvaraqlarni yuritish uchun mas'ul bo'lgan bank.

Bank hisobvarag'i (yoki Hisobvaraq) - Bank va Mijoz o'rtasida alohida tuzilgan shartnoma asosida ochiladigan hisobvaraq bo'lib, unga muvofiq Bank Mijozning hisobvarag'iga kelib tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kirim qilish, Mijozning hisobvaraqdan tegishli pul mablag'larini o'tkazish va berish to'g'risidagi topshiriqlarini bajarish, shuningdek hisobvaraq bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Mijoz - yuridik shaxs, yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs, o'zini o'zi band qilgan shaxs, shuningdek QR-kod orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qiluvchi hamda Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari foydasiga to'lovlarni qabul qiluvchi shaxs.

To'lovchi - to'lovni o'z nomidan amalga oshirayotgan shaxs.

Statik QR-kod - doimiy to'lov rekvizitlariga (to'lovni qabul qiluvchi bank nomi va uning ma'lumotlari, mijozga ochilgan hisobvaraq) ega o'zgarmas QR-kod.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Bank Mijozga yagona QR-kodni generatsiya qilish va taqdim etish xizmatlarini ko'rsatadi, shuningdek QR-kod orqali amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha ekvayring xizmatlarini ta'minlaydi. Mijoz mazkur Shartnoma shartlariga hamda Bank tariflariga

(1-ilova - QR-kod tizimi doirasida ko'rsatiladigan xizmatlar uchun tariflar miqdori) muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

2.2. Yagona QR-kod Mijozga banklar va to'lov tashkilotlarining mobil ilovalari orqali tovarlar, bajarilayotgan ishlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun naqd pulsiz to'lovlarni qabul qilish maqsadida taqdim etiladi.

2.3. Shartnomaning aksept qilinishi Mijozga Yagona QR-kodni taqdim etish uchun asos hisoblanadi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1. Bankning majburiyatlari:

3.1.1. Mijozni yagona QR-kod tizimida ro'yxatdan o'tkazish.

3.1.2. Mijozga QR-kod tizimi orqali to'lovchilardan to'lovlarni qabul qilish imkoniyatini ta'minlash.

3.1.3. Mijozga o'zining faoliyatida QR-kodlardan foydalanish tartibi, QR-kodlardan foydalanmaslik, ularning asl holatiga shikast yetkazish yoki qalbaki QR-kodlardan foydalanish oqibatlari bo'yicha og'zaki yoki yozma tushuntirish berish.

3.1.4. To'lovlarga ishlov berish va hisob-kitoblarni amaldagi qonunchilik talablari hamda yagona QR-kod tizimi qoidalariga muvofiq amalga oshirish.

3.1.5. QR-kod orqali qabul qilingan to'lovlar bo'yicha pul mablag'larining Mijoz hisobvarag'iga bir bank ish kuni davomida kirim qilinishini ta'minlash.

3.1.6. Mijozning arizasiga asosan QR-kod orqali onlayn to'lovlar servisidan foydalanish uchun 23520-sonli hisobvaraqli ochish hamda ushbu hisobvaraqli Mijozning asosiy yoki qo'shimcha hisobvarag'iga bog'lash.

3.1.7. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

3.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Mijozdan ro'yxatdan o'tkazish va xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan hujjatlar hamda ma'lumotlarni so'rab olish.

3.2.2. Bank Tariflarga bir tomonlama tartibda o'zgartirish kiritish. Bunda Bank Tariflarga kiritilayotgan o'zgartirishlar haqida Mijozni o'zgarishlar kuchga kirishi mo'ljallangan sanadan kamida 15 (o'n besh) kalendar kun oldin xabardor qiladi. Xabar berish Bankning korporativ veb-sayti (www.brb.uz)da tegishli ma'lumotni joylashtirish orqali, shuningdek Bank ixtiyoriga ko'ra boshqa usullar bilan amalga oshiriladi.

3.2.3. Mijozdan QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilish qoidalariga rioya etilishini talab qilish.

3.2.4. QR-kod tizimi orqali qabul qilingan to'lovlar uchun Bank tariflarida belgilangan vositachilik haqini avtomat tarzda ushlab qolish.

3.2.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lish.

3.3. Mijozning majburiyatlari:

3.3.1. QR-koddan faqat amalga oshirilayotgan faoliyat doirasida foydalanish.

3.3.2. QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilish jarayonida aniqlangan har qanday xatoliklar to'g'risida Bankni bir ish kuni mobaynida xabardor qilish.

3.3.3. Bank tomonidan taqdim etilgan QR-kodni savdo nuqtasida barcha To'lovchilar ko'rishi mumkin bo'lgan, ko'zga yaqqol tashlanadigan joyga joylashtirish.

3.3.4. Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar (yuridik manzil, nomlanish, mobil telefon raqami va boshqalar) o'zgargan taqdirda, bu haqda Bankni bir ish kuni mobaynida xabardor qilish.

3.3.5. Faoliyat turi o'zgargan taqdirda, Mijoz bu haqda Bankka uch bank ish kuni mobaynida tegishli ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

3.3.6. Mazkur Shartnoma shartlari doirasida Mijoz to'lovlarni uzluksiz qabul qilish uchun yaratilgan infratuzilmaning doimiy ish holatini ta'minlash.

3.3.7. QR-koddan uchinchi shaxslar tomonidan to'lovlarni qabul qilish maqsadida foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik.

3.3.8. Bankning belgilangan ish tartibiga, to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari talablariga rioya etish.

3.3.9. Berilgan ishonchnomalar bekor qilinganligi to'g'risida Bankni darhol xabardor qilish, bekor qilinayotgan ishonchnomaning rekvizitlarini hamda Bankka Mijoz vakilligini amalga oshiruvchi shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi hujjatlarni ko'rsatish. Ishonchnomani bekor qilish haqida Bankka o'z vaqtida xabar berilmaganligi yoki xabar berishning belgilangan tartibi buzilganligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar va boshqa noqulay oqibatlar uchun javobgarlik Mijoz zimmasida bo'ladi.

3.3.10. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga rioya etish.

3.4. Mijozning huquqlari:

3.4.1. QR-kod orqali onlayn tarzda qabul qilingan to'lov mablag'larining o'z hisobvaraqlariga o'z vaqtida o'tkazilishini talab qilish.

3.4.2. Amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish.

3.4.3. Mazkur Shartnoma imzolanishidan oldin u bilan tanishish uchun uning nusxasini olish.

3.4.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lish.

3.4.5. To'lovlarni amalga oshirishda yagona QR-kod orqali to'lov xizmatlarini ko'rsatish Qoidalarida (ro'yxat raqami 3817, 2026 yil 15 aprel) belgilangan huquq va majburiyatlarga hamda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'ladilar.

4. Bank siri

4.1. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Bank Mijozga oid bank siri hisoblanadigan ma'lumotlarning maxfiyligini kafolatlaydi.

4.2. Mijozga oid bank siri hisoblanadigan ma'lumotlar faqat Mijozning yozma arizasiga asosan va faqat Mijozning o'ziga yoki uning ishonchli vakiliga taqdim etilishi mumkin.

4.3. Mijozga oid bank siri hisoblanadigan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish faqat amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

5. QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilish va ular bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi va shartlari

5.1. QR-kodlar orqali to'lovlarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda bankning ichki normativ hujjatlariga muvofiq, yagona "QR-Online" tizimi va bankning to'lov infratuzilmasidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

5.2. Xizmatga ulanish uchun Mijoz Bankka amalga oshirilgan to'lovlar haqidagi xabarnomalarni qabul qilish uchun mobil telefon raqamini ko'rsatgan holda QR-kod olish bo'yicha ariza taqdim etadi.

5.3. Bank Mijozni "QR-Online" tizimida ro'yxatdan o'tkazishni Mijozning STIRi (soliq to'lovchining identifikatsiya raqami) va mobil telefon raqami ko'rsatilgan tegishli so'rovnomanini yuborish orqali amalga oshiradi.

5.4. Mijoz ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng Bank QR-kodga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan shaxsiy hisobvaraqlarni ochadi va mazkur hisobvaraqlarni "QR-Online" tizimida ro'yxatdan o'tkazish uchun so'rov yuboradi.

5.5. Ro'yxatdan o'tkazish yakunlari bo'yicha Mijozga QR-kodning yagona (unikal) identifikatsiya raqami beriladi hamda grafik tasvir ko'rinishidagi QR-kod shakllantiriladi.

5.6. QR-kod orqali to'lov to'lovchi tomonidan xizmat ko'rsatuvchi bankning mobil ilovasi orqali QR-kodni skaner qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5.7. QR-kod o'qilgandan so'ng, mobil ilova QR-kodda mavjud ma'lumotlar asosida to'lov hujjatini avtomatik ravishda shakllantiradi.

5.8. To'lovchi to'lovni xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan belgilangan autentifikatsiya tartib-taomillariga muvofiq tasdiqlaydi.

5.9. To'lovlarni qayta ishlash va amalga oshirish MUNIS tizimi orqali «QR-kod orqali to'lov» xizmati provayderidan (xizmat kodi — 9998) foydalangan holda amalga oshiriladi.

5.10. Pul mablag'lari to'lov tizimining faoliyat ko'rsatish qoidalarini va bankning ichki tartib-taomillarida nazarda tutilgan tartib hamda muddatlarda oluvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi.

5.11. QR-kodlar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

5.12. Pul mablag'larini hisobvaraqlarga kiritish uchun asos bo'lib QR-kod ma'lumotlari asosida shakllantirilgan va muvaffaqiyatli bajarilgan to'lov hujjati hisoblanadi.

5.13. Amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar ma'lumotlarni saqlash bo'yicha belgilangan talablarga muvofiq bankning axborot tizimlarida va "QR-Online" tizimida saqlanadi.

5.14. To'lov muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so'ng, Mijoz "QR-Online" tizimida nazarda tutilgan SMS-xabarlar va boshqa axborot berish kanallari orqali bildirishnomalarni qabul qilishi mumkin.

5.15. Bank QR-kodlar orqali to'lovlarni qabul qilish xizmati to'g'ri ishlashini hamda hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash majburiyatini oladi.

5.16. Mijoz QR-koddan belgilangan talablarga muvofiq foydalanish va ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari o'zgargan taqdirda bu haqda Bankni xabar qilish majburiyatini oladi.

5.17. Taraflar axborot xavfsizligi va ma'lumotlar maxfiyligi talablariga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadilar.

5.18. Mazkur Shartnoma bilan tartibga solinmagan holatlar O'zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

6. Axborot xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablar

6.1. Tomonlar Yagona QR-kod orqali xizmatlar ko'rsatish jarayonida foydalaniladigan axborotni himoya qilishni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablari, QR-kod tizimi Operatori texnik hujjatlari hamda Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ta'minlash majburiyatini oladi.

6.2. Mijoz Bank tomonidan taqdim etilgan QR-kodning saqlanishini ta'minlashi, uni o'zgartirish, shikastlantirish, almashtirish, nusxa ko'chirish, ruxsatsiz tarqatish yoki uchinchi shaxslar tomonidan foydalanilishiga yo'l qo'ymasligi shart.

6.3. Mijoz quyidagi holatlar aniqlangan taqdirda Bankni darhol xabardor qilishi shart:
QR-kodning komprometatsiya qilinishi;

to'lovlar qabul qilish uchun foydalaniladigan qurilmalar ustidan nazorat yo'qotilishi;

axborot tizimlariga ruxsatsiz kirish holatlari;

firibgarlik harakatlari;

to'lovlar xavfsizligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborot xavfsizligi insidentlari.

6.4. QR-kodning komprometatsiya qilinishi alomatlari, firibgarlik operatsiyalari, axborot xavfsizligiga tahdidlar yoki mazkur Shartnoma talablari buzilganligi aniqlangan taqdirda, Bank oldindan xabardor qilmasdan QR-kodni vaqtincha bloklash, operatsiyalarni cheklash yoki aniqlangan holatlar bartaraf etilguniga qadar xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish huquqiga ega.

6.5. Tomonlar mazkur Shartnoma ijrosi doirasida olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash majburiyatini oladi, qonunchilik talablariga muvofiq holatlar yoki vakolatli davlat organlarining so'roviga binoan ma'lumotlarni oshkor qilish hollari bundan mustasno.

6.6. Bank quyidagi holatlar natijasida Mijozga yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo'lmaydi:

Mijoz tomonidan axborot xavfsizligi talablarining buzilishi;

Mijoz tomonidan sertifikatlanmagan yoki zaif (xavfsizligi past) dasturiy ta'minotdan foydalanilishi;

Bankka bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra uchinchi shaxslar tomonidan QR-kod yoki Mijoz qurilmalariga ruxsatsiz kirish holatlarining oldi olinmaganligi;

aloqa tarmoqlari, Internet, dasturiy ta'minot yoki uchinchi shaxslarga tegishli uskunalardagi nosozliklar yoki uzilishlar.

7. Tomonlarning javobgarligi

7.1. Bank va Mijoz mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7.2. Bank quyidagi holatlarda javobgarlikdan ozod etiladi:

a) fors-major holatlari, shu jumladan banklararo elektron to'lovlar tizimi ishidagi ehtimoliy uzilishlar;

b) Mijoz tomonidan amaldagi qonunchilikda belgilangan talablarga javob bermaydigan to'lov hujjatlari taqdim etilgan hollarda;

d) qonunchilikda belgilangan tartibda bank yoki Mijoz hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatib qo'yilganda;

e) boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda;

f) yagona QR-kod tizimi operatori, to'lov tashkilotlari yoki to'lov infratuzilmasining boshqa ishtirokchilari harakatlari natijasida yuzaga kelgan zararlar uchun.

7.3. Mijoz va To'lovchi o'rtasidagi munosabatlar Bank ishtirokisiz mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

7.4. Bank Mijozning boy berilgan foydasi (olinmagan daromadi) uchun javobgar bo'lmaydi.

7.5. Mijoz QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilish uchun foydalaniladigan qurilmalarning jismoniy va axborot xavfsizligini ta'minlash uchun javobgar hisoblanadi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha shartlar

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari harakat (jarayon)larga ta'sir qilishi yoki ushbu shaxslarning har qanday nomaqbul imtiyozlar yoki boshqa imtiyozlarni olish uchun to'lovlarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron bir pul mablag'lari yoki qiymatlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar.

8.2. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari amalda qonunchilikda pora berish-olish, shuningdek, amaldagi qonunchilik va xalqaro xuquq talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish qoidalariga zid harakatlar qilmaydi.

8.3. Ushbu shartnoma taraflarning har biri boshqa tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishni rad etadi, jumladan pul mablag'lari, sovg'alar, bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va boshqalar taqiqlanadi. Shu bilan birga, xodimni ma'lum bir qaramlikka olib kelishi va buning bajarilishini ta'minlash, xodim rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatni amalga oshirishi ta'qiqlanadi.

8.4. Agar biron-bir tomon korrupsiyaga qarshi kurash shartlarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb bilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma yoki og'zaki, shu jumladan, ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyatini oladi.

8.5. Yozma xabarnomalar «Biznesni rivojlantirish banki» ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish «Komplaens ishonch liniyasi» kanallari (tel:78 150-59-95, veb sayt www.brb.uz, Telegram messenger BRB AntiKor (@brbantikor_bot) orqali amalga oshiriladi.

8.6. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.7. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9. Fors-major holatlari

9.1. Ushbu shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suv toshqini, yong'inlar, zilzilalar va tabiiy ofatning boshqa ko'rinishlari, hamda urush, epidemiya, epizootiya, shuningdek boshqa shunga o'xshash oldini olish imkoniyati bo'lmagan fors-major holatlarida, yoki qonun hujjatlari bekor qilinishi yoki amaldagi qonun hujjatlariga

kiritilgan o'zgartirishlar munosabati bilan, ushbu Shartnoma bo'yicha har qanday majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmagan hollarda Shartnoma tomonlaridan hech biri javobgar bo'lmaydilar.

10. Shartnomani bekor qilish

10.1. Bank va Mijoz o'rtasidagi Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinadi:

Mijozning arizasiga asosan istalgan vaqtda;

qonunchilikda va/yoki mazkur Shartnomada nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelganda;

Tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va/yoki mazkur Shartnomada belgilangan boshqa asoslarga ko'ra.

Shartnomaning bekor qilinishi Mijozning bank hisobvarag'ini QR-kod tizimidan uzish uchun asos hisoblanadi.

Mijoz tomonidan QR-kod biriktirilgan asosiy bank hisobvarag'i boshqa bankka o'tkazilgan taqdirda, mazkur Shartnoma Bank va Mijoz o'rtasida bekor qilingan hisoblanadi.

Sud qaroriga asosan shartnoma bekor qilingan taqdirda, Mijozning bank hisobvarag'i ham QR-kod tizimidan uzib qo'yilishi mumkin.

10.2. O'zini o'zi band qilgan shaxslardan tashqari, ro'yxatga oluvchi organ tomonidan nafaol deb topilgan va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan deb e'tirof etilgan Mijozlar bo'yicha mazkur Shartnoma ularni davlat reestridan chiqarilgan kundan boshlab bekor qilingan hisoblanadi.

11. Shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilinishi

11.1. Mazkur Shartnoma uni aksept qilish sanasidan boshlab kuchga kiradi va nomuayan muddatga tuzilgan hisoblanadi. Shartnoma Tomonlardan birining tashabbusiga ko'ra boshqa Tomonni bu haqda 15 (o'n besh) kalendar kun oldin xabardor qilish sharti bilan yoki Tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan bekor qilinishi mumkin. Agar Tomonlar Shartnomani bekor qilish bo'yicha kelishuvga erisha olmasa, Shartnoma sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

11.2. Mazkur Shartnoma Mijozning talabiga ko'ra, Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bilan bog'liq barcha to'lovlar va qarzdorliklar to'liq to'langanidan so'ng, belgilangan tartibda istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

11.3. Bank Mijoz tomonidan qonunchilik, POD/FT talablari yoki yagona QR-kod tizimi qoidalarini buzilgan taqdirda Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega.

12. Yakuniy qoidalar

12.1. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qo'llaniladi. Mazkur Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar uning ajralmas qismi hisoblanadi.

12.2. Mazkur Shartnoma va O'zbekiston Respublikasining «Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, ushbu Shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida Mijoz Bankka o'z shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, saqlash, o'zgartirish, ulardan foydalanish hamda mazkur Shartnomani bajarish uchun zarur hollarda uchinchi shaxslarga berish huquqini taqdim etadi.

12.3. Mazkur Shartnoma bajarilishi bilan bog'liq Bank va Mijoz o'rtasida nizolar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar ularni o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal qilish uchun barcha zarur choralarni ko'radilar. Agar muzokaralar natijasida kelishuvga erishilmasa,

nizo Bank joylashgan manzil bo'yicha iqtisodiy sudda qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

12.4. Uchinchi shaxslar bilan hisob-kitoblarga oid nizolar ular tomonidan Bank ishtirokisiz mustaqil ravishda hal etiladi.

***Yagona QR-kodni generatsiya
qilish va unga xizmat ko'rsatish
(ekvayring) to'g'risidagi
Shartnomaga
1-ilova***

**Yagona QR-kod tizimi orqali ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan vositachilik
haqi miqdori (tarif)**

21.	Savdo va xizmat ko'rsatish korxonalariga (sub'ektlariga) xizmat ko'rsatish	
21.6.	"Yagona QR-kod" orqali tranzaksiyalarni qayta ishlash	To'lov summasining 0,65 % miqdori

**Yagona QR-kodni
generatsiya qilish va unga
xizmat ko'rsatish (ekvayring)
to'g'risidagi Shartnomaga
2-ilova**

**Yagona QR-kodni generatsiya qilish va unga xizmat ko'rsatish (ekvayring) bo'yicha
Ariza**

Kimdan: _____
(tashkilot nomi)

INN: _____

Manzil: _____

Telefon: _____

ARIZA

Savdo faoliyatini amalga oshirish hamda xizmatlar ko'rsatishda naqd pulsiz to'lovlarni qabul qilish uchun «Yagona QR-kod» xizmatini ulashingizni so'raymiz.

Ariza beruvchi to'g'risida ma'lumotlar:

- ☐ Tashkilot nomi: _____
- ☐ ИНН: _____
- ☐ Hisobraqami: _____
- ☐ МФО: _____
- ☐ Faoliyat turi: _____
- ☐ Savdo nuqtasi (хизмат кўрсатиш жойи) manzili: _____

Mazkur arizani ko'rib chiqishingizni va belgilangan tartibda «Yagona QR-kod» xizmatini ulashingizni so'raymiz.

Rahbar

M.O'.

F.I.Sh.

Ushbu ariza Yagona QR-kodni generatsiya qilish va unga xizmat ko'rsatish (ekvayring) to'g'risidagi Ommaviy ofertani qabul qilish (akseptlash) hisoblanadi hamda uning shartlari kuchga kirgishini anglatadi.